

EPISTEMIK MODALLIKNING KONSEPTUAL IFODASI

N. Ochilova¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada tilshunoslik sohasida ishlatilgan irrealisning epistemik modallikning konseptual sohasida ishlatilishi haqida ma'lumot keltirilgan. Realis va irrealis kategoriyalarni har qanday modal kategoriyalar singari tillararo solishtirganda, ular asoslangan tafovutlar haqiqatan ham solishtirish mumkinligiga ishonch hosil qilishi mumkinligi aytib o'tilgan. Ushu maqolada gapda irrealis tarkibli birliklarning tipologik tahlillari va undagi o'zgarishlar haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Epistemik modallik, irrealis, lingvistik kodlash, leksik vositalar, grammatik konstruksiyalar, konseptual tomon.

doi: <https://doi.org/10.2024/31yr2p94>

Hozirgi kunda tilshunoslikning turli sohalari rivojlanib bormoqda. Bu albatta tildagi o'zgarishlar bir joyda dogma bo'lib qolmasdan balki rivojlanib bormoqda. Irrealisning modallikka tenglashtirilishini rad etish vaziyat ifodasining noaktuallashuvini konseptual jihatdan modal bo'lmagan ma'noda, ya'ni so'zlovchining ushbu vaziyat ifodasini tasvirlovchi taklifga munosabatiga havola qilmasdan qanday aniqlash mumkinligi haqidagi masalani yuzaga keltiradi. Bu esa, nazariy munosabat jarayonidagi lisoniy birliklarni qo'llanilish, balki vaziyatni idrok etishga, mantiqiy fikr yuritishga undaydi. Bunda, vaziyat ifodasining noaktualligi haqidagi gap uning idrok etilgan reallikka asoslanmaganligini anglatadi. Irrealisni aniqlashdagi bu yondashuv mutlaqo boshqa semantik maqsadlarda sodir bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham irrealisni modal munosabatlardan farqlash maqsadida quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz: They told me in the laundry, he said harshly, that they saw her pass yesterday in an automobile. With one of the millionaires, I suppose, that you and Lon were for ever busing your brains about (O. Henry, 121).

Umuman olganda realis/ irrealis hodisalarini konseptual maqomini quyidagicha talqin qilishni taklif etamiz.

(1) vaziyat ifodasi noreal, ya'ni real dunyoda uchramaydigan yoki sodir bo'lmagan deb tasniflanadi: masalan, vaziyat ifodasining inkor etilishi. Ushbu irrealis ma'nosi aniq lisoniy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi talab etiladi;

(2) vaziyat ifodasi ko'plab bir-birini istisno qiluvchi alternatalardan biri sifatida ilgari suriladi. Vaziyat ifodasi faktga asoslanganligini boshqa muqobillar orasida istisno qilmaslik kerak. Mazkur irrealis ma'nosi keltirilgan dalilning mavjudlik ehtimoli kam bo'lgan holatlarga nisbatan talqin qilinadi;

(3) vaziyat ifodasi real dunyoga makonva vaqt ko'rsatkichlarisiz kiritiladi. Vaziyat ifodasi vaqtinchalik yoki odatiy bo'lishi mumkin. Buirrealis ma'nosi aniq vaqt hamda maqomga ega bo'lganligi sabab sifatida talqin qilish mumkin.

Irrealisni konseptual baholanishi semantik tavsifining hech biri modal xususiyatga ega emas. Bu to'g'ridan-to'g'ri, qarama-qarshi, mantiqan va konseptual baho berish sifatida

¹ Ochilova Noila Farmonovna, SamDCHTI o'qituvchisi

qabul qilish mumkin. Agar vaziyat ifodasini bir-birini istisno qiluvchi variantlardan biri sifatida taqdim etilganda so'zlovchining ushbu voqea –hodisani tasvirlaydigan jumlagi e'tibor qaratishi irrealisni kodlashga yo'naltirilishi maqsadiga xizmat qilmaydi. Muloqotda biror dalilning mavjudligini ehtimolligi ham aniqroq ko'rsatgichga ega bo'ladigan lisoniy vositalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Relis bilan bog'liq vaziyat ifodasini har qanday majburiyatlardan holi tarzda gapning haqiqatga oid ma'lumotlarini e'tiborga olish muhim sanaladi.

Irrealisni konseptual mohiyatini namoyish etuvchi yuqoridagi uch konsepsiya uchun ham umumiy bo'lgan xususiyat shundaki, ularni ushbu vaziyat ifodasini tavsiflovchi reallik tavsifi emas, balki taqdim etilgan vaziyat ifodasi realligining tavsifi sifatida tushunish mumkin. Funksional grammatika terminologiyasidan foydalangan holda, vaziyat ifodasining irrealisligiga ishorasiga gapni o'zgartiruvchi taklif modifikatori emas balki vaziyat ifodasida mavjud harakatning predikativ modifikatori sifatida qarash kerak. Bu xususiyat qo'shimcha ravishda irrealisni, kognitiv faoliyatiga aloqador hodisa sifatida, epistemik modallik tomonidan ifodalanadigan modallikning asosiy qismidan ajratib turadi.

Shunday qilib, konseptual nuqtayi nazardan, vaziyat ifodasini noaktual deb belgilash ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. Irrealisni [+realistik] va [-real] ma'no o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan aniqlangan realis kategoriyasini bir ma'noli hisoblamaslik kerak: relis ham irrealis ham konseptual tafakkur orqali aniqlanadi, bu borada J.Baybining fikriga mutlaqo qo'shilamiz. Biroq, bu, J.Baybi taklif qilganidek, lingvistik ahamiyatga ega bo'lgan irrealis konseptuallikning mavjudligidan voz kechish kerak degani emas.

Irrealisga "superkategoriya" (bu belgi ba'zan modallikni bildirish uchun ishlatiladi) sifatida qarash kerak, degan fikrdamiz. Chunki, bu vaziyat ifodasi aktualizatsiyasi bilan bog'liq bir nechta lisoniy sathlarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, irrealis modallik tushunchasi kabi murakkab konseptual tushunchadir, garchi ular o'rtasida ma'lum farqlar mavjud. Ushbu konseptual murakkablikni inobatga olgan holda, turli tillarda modallikni kodlashda ham, irrealisni kodlash kabi qatormurakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, ma'lumotning maksimal darajada kam aniqlanganligima'lumotni aktuallashtirilmagan ifodaga egaligi kabilarda ko'zga tashlanadi. Ushbu murakkabliklar spesifikatsiyasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, ma'lumotlarni realis/ irrealisligini ajratish imkoni mavjud bo'ladi.

Shu bilan birga, "irrealis" belgilarini faqat u yoki bu noaktuallashtirish ma'noni ifodalashga ishlatadigan lisoniy vositalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Tub ma'nolardan birini ifodalovchi belgining ma'nosi ba'zi hollarda boshqa ma'nolarni ifodalash uchun kengaytirilishi mumkin. Mazkur vaziyatda irrealis boshqa tutash kategoriyalar bilan boshqacha munosabatda bo'lishi mumkin. DeHaan tomonidan taklif qilinganidek, faqat yuqoriga o'suvchi metodologiyada alohida tillarning yuqoriga qarab o'sish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shunday qilib, ushbu semantik tushunchaning ifodasini tushunish uchun voqea- hodisalar kechimiga konseptual baho berish orqali erishiladi. Konseptual baholash voqea- hodisalarni real yoki irreal ekanligi o'sha til tabiatidan kelib chiqiladi.

Yechimini topishi kerak bo'lgan muhim masalalardan biri, odatda, irrealis vaziyatlarning u yoki bu darajada aktuallashtirilmagan ma'noga ajratishdir. Bu kabi ajratish qiyosiy - tipologik yondashuv orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Qiyosiy tahlilda irrealisni aktuallashtirish yoki aktuallashtirilmaganligini qo'rsatuvchi lisoniy vositalar ko'zga tashlanadi. Chunki, biror tilda irrealisni aktuallashtirishni ko'rsatadigan lisoniy vositalar mavjud bo'lib, boshqasida o'zgarmasligi mumkin. Irrealis ma'nosini aktuallashtirishni ko'rsatadigan til vositalari bor bo'lishi tillarda intuitsiyaga tayangan holda inkorlar va kontrafaktual gipotezalarini qarama-qarshilikka, gipotetik shartlar, konsessiv, optativ va

epistemologik modallarni faoliyat ehtimolligining mavjudligiga, xabitual va kelasi zamonni noaniqlik xususiyatlarini kiritish mumkin.

Irrealisni aniqlashga intuitiv yondashuv qoniqarsiz bo'lib, til nuqtayi nazaridan emas, balki mantiqiy yoki daliliy bahoga aylanishi mumkin. Aslida, intuitiv yondashuv eng yaxshi holatda ma'lum bir noaktualizatsiya hissi vaziyat tipidagi konseptual tuzilishga mos kelishi yoki kelmasligini ko'rsatishi mumkin: bu kichik ma'no berilgan ma'lum bir tilda ushbu konseptual tuzilmaning qanday semantizatsiya qilinganiga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlay olmaydi. Bu semantikaning umumiy muammosidir. Ariel, "semantiklar orasida so'zlovchining gapi reallikka mos kelishi uchun zarur bo'lgan barcha elementlarni lingvistik semantik ma'nolarga yuklash tendentsiyasi" mavjudligini ta'kidlaydi.

Arielning qayd etishiga nutqimizda qo'llaydigan ma'lumotlar ortidagi ob'ektiv reallikka murojaat qilgan holda, ma'noni baholay olmaymiz". Shuning uchun, muayyan vaziyatga mos keladigan barcha voqea-hodisalar ifodasi ushbu vaziyatning lingvistik ahamiyatga ega bo'lgan tomonlarini tanlamaydi. Ma'lum bir belgi aynan nimani anglatishini tushunish uchun ushbu belgining vaziyatga mos kelishini tekshirish va uning qiymatiga ushbu vaziyatning barcha konseptual komponentlarini kiritish yetarli emas. Aksincha, vaziyatning muhim jihatdan qo'llanilgan lisoniy vosita tomonlari so'zlovchi tomonidan ataylab ajratib ko'rsatiladi va faqat shu yordamida ma'lumotning real yoki irrealligi aniqlanadi. Realis yoki irrealis masalasining mantiqiy baholanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, masalan, "mantiqiy noreal" vaziyat (har qanday vaziyat kabi) murakkab konseptual tuzilishga ega.

Bundan kelib chiqadiki, realis yoki irrealisni faollashish ma'nosi u yoki bu noreal vaziyatni kodlash uchun lingvistik ahamiyatga ega ekanligi yoki emasligini, ya'ni uni haqiqatan ham uning lingvistik ma'nosining bir qismi sifatida ko'rib chiqish kerakmi yoki kerak emasligini tushunish uchun uning konseptual jihatdan bu vaziyatga mutanosibligini kuzatish kifoya.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. M. Ariel *Pragmatics and Grammar*. Cambridge University Press, Cambridge, 2008. -P363
- [2]. F.De Haan *On representing semantic maps (ms.)*. University of Arizona De Haan, F., this volume. *Irrealis: fact or fiction*. 2004.
- [3]. J. Bybee *Irrealis as a grammatical category*. *Anthropological Linguistics* 40, 1998. -P 257-271.